



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-aprel holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **20620** tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **17433** ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi **87,7** foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **86,1** foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil aprel oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda **331** taga kamayganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar **175** taga, oilaviy korxonalar **128** taga kamaygan.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	234	4,3 %	Baxmal t.	49	3,4 %
G'allaorol t.	164	8,6 %	Paxtakor t.	42	4,1 %
Zomin t.	121	6,8 %	Mirzacho'l t.	40	5,0 %
Sharof Rashidov t.	105	3,9 %	Zafarobod t.	33	5,2 %
Zarbdor t.	80	7,0 %	Yangiobod t.	30	6,2 %
Forish t.	79	5,0 %	Do'stlik t.	23	2,5 %
Arnasoy t.	55	6,9 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga (23 552 ta) nisbatan 2 932 ta kamayganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli kamayishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 5 884 tadan 5 486 taga (kamayish 398 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4 129 tadan 3 711 taga (kamayish 418 ta), sanoat – 3 784 tadan 2 965 taga (kamayish 819 ta).

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	5 463	Paxtakor t.	1 024
Sharof Rashidov t.	2 680	Do'stlik t.	909
G'allaorol t.	1 910	Mirzacho'l t.	798
Zomin t.	1 781	Arnasoy t.	793
Forish t.	1 572	Zafarobod t.	639
Baxmal t.	1 428	Yangiobod t.	484
Zarbdor t.	1 139		

2023- yil aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil mart oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **1 034** ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **1 034** ta;
- yirik korxonalar.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	224	4,7 %	Baxmal t.	47	4,0 %
G'allaorol t.	158	9,6 %	Paxtakor t.	42	5,0 %
Zomin t.	121	8,1 %	Mirzacho'l t.	40	6,2 %
Sharof Rashidov t.	104	4,4 %	Zafarobod t.	33	6,6 %
Forish t.	79	5,7 %	Yangiobod t.	30	7,7 %
Zarbdor t.	78	8,2 %	Do'stlik t.	23	3,1 %
Arnasoy t.	55	8,4 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- aprel holatiga **17 511** taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **133,6** foizni tashkil etdi (**4 403** ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **31,3** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **21,0** foiz, sanoat – **16,9** foiz, qurilish – **9,0** foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **7,0** foiz, tashish va saqlash – **1,5** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,5** foiz, axborot va aloqa – **1,3** foiz, boshqa turlari – **9,5** foiz.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	4 742	Paxtakor t.	847
Sharof Rashidov t.	2 356	Do'stlik t.	735
G'allaorol t.	1 643	Arnasoy t.	657
Zomin t.	1 489	Mirzacho'l t.	647
Forish t.	1 379	Zafarobod t.	503
Baxmal t.	1 168	Yangiobod t.	390
Zarbdor t.	956		

2023- yil aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil mart oyida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan **24** tadan **22** taga (kamayish **2** taga), Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **15** tadan **11** taga (kamayish **4** taga) kamaydi.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	224	4,8 %	Baxmal t.	47	4,0 %
G'allaorol t.	158	9,6 %	Paxtakor t.	42	5,0 %
Zomin t.	120	8,1 %	Mirzacho'l t.	40	6,2 %
Sharof Rashidov t.	104	4,4 %	Zafarobod t.	33	6,6 %
Forish t.	78	5,7 %	Yangiobod t.	30	7,7 %
Zarbdor t.	77	8,1 %	Do'stlik t.	23	3,2 %
Arnasoy t.	55	8,4 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (**27,0 foiz**), Sharof Rashidov (**13,5 foiz**), G'allaorol (**9,4 foiz**), Zomin (**8,5 foiz**) va Baxmal (**6,7 foiz**) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4 705	Paxtakor t.	844
Sharof Rashidov t.	2 353	Do'stlik t.	730
G'allaorol t.	1 638	Arnasoy t.	655
Zomin t.	1 481	Mirzacho'l t.	643
Forish t.	1 375	Zafarobod t.	501
Baxmal t.	1 166	Yangiobod t.	390
Zarbdor t.	952		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Forish t.	677
Sharof Rashidov t.	432
G‘allaorol t.	362
Baxmal t.	356
Arnasoy t.	290
Zarbdor t.	234
Zomin t.	282
Jizzax sh.	277
Mirzacho‘l t.	194
Do‘stlik t.	187
Zafarobod t.	187
Yangiobod t.	141
Paxtakor t.	128



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	833
Sharof Rashidov t.	418
G'allaorol t.	324
Zomin t.	264
Zarbdor t.	197
Forish t.	170
Paxtakor t.	146
Do'stlik t.	130
Baxmal t.	129
Mirzacho'l t.	117
Zafarobod t.	94
Arnasoy t.	93
Yangiobod t.	50



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'sish sur'ati **102,2** foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning **14,4** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan **95,0** foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish **78,5** foiz), **3,2** foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish **73,3** foiz), **1,4** foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish **89,1** foiz) va **0,4** foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish **64,7** foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	622
Sharof Rashidov t.	236
G'allaorol t.	125
Zomin t.	107
Zarbdor t.	89
Paxtakor t.	76
Forish t.	70
Baxmal t.	59
Do'stlik t.	54
Mirzacho'l.	49
Arnasoy t.	45
Yangiobod t.	25
Zafarobod t.	22



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **53,9** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **75,3** foizga kamaygan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **26,3** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **73,4** foizga kamaygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **19,8** foiz ulushni va **75,9** foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

416


Fuqarolik
obyektlarini qurish

312

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

851


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1 651
Sharof Rashidov t.	782
Zomin t.	502
G'allaorol t.	502
Baxmal t.	408
Paxtakor t.	317
Forish t.	292
Zarbdor t.	228
Do'stlik t.	217
Mirzacho'l t.	160
Arnasoy t.	159
Zafarobod t.	158
Yangiobod t.	110



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **99,8** foizi yoki **5 475** tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **63,7** foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati **96,5** foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **25,4** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **85,6** foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida **10,9** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **93,9** foizni tashkil etdi.

598

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 393

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


3 495

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	383
Sharof Rashidov t.	206
Zomin t.	109
G'allaorol t.	98
Zarbdor t.	77
Paxtakor t.	71
Baxmal t.	59
Do'stlik t.	53
Mirzacho'l t.	53
Forish t.	52
Zafarobod t.	34
Yangiobod t.	20
Arnasoy t.	14



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan **121,8** foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **7,8** foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining **92,2** foiz ulushini tashkil etdi.

96

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 133


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	116
G'allaorol t.	21
Sharof Rashidov t.	17
Zomin t.	17
Paxtakor t.	17
Baxmal t.	14
Zarbdor t.	9
Do'stlik t.	5
Mirzacho'l t.	5
Forish t.	5
Zafarobod t.	4
Yangiobod t.	4
Arnasoy t.	3



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **11,4** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **108,0** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **29,1** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **70,4** foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning **59,5** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **96,6** foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	167
Zomin t.	31
Sharof Rashidov t.	29
Sharof Rashidov t.	21
Sharof Rashidov t.	21
Paxtakor t.	13
Zarbdor t.	10
Mirzacho'l t.	10
Do'stlik t.	8
Forish t.	8
Yangiobod t.	8
Zafarobod t.	7
Arnasoy t.	4



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi **335** ta yoki **1,6** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,5 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,3** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **4,5** foizni tashkil etib, o'sish sur'ati **62,5** foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **3,0** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **90,9** foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	170
Sharof Rashidov t.	95
Zomin t.	29
G'allaorol t.	27
Do'stlik t.	26
Paxtakor t.	25
Zarbdor t.	22
Baxmal t.	21
Mirzacho'l t.	12
Arnasoy t.	9
Zafarobod t.	7
Forish t.	6
Yangiobod t.	4



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning **2,2** foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati **75,0** foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati **70,6** foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi **57,6** foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **100,0** foizni tashkil etdi;


suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni mavjud emas.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni


Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2023- yil aprel holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	180	Baxmal t.	44
Zomin t.	93	Mirzacho'l t.	37
Sharof Rashidov t.	84	Zafarobod t.	24
Forish t.	76	Paxtakor t.	23
Zarbdor t.	73	Yangiobod t.	23
G'allaorol t.	62	Do'stlik t.	20
Arnasoy t.	47		


2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





2023- yil 1- mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan **17 511** ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining **12 399** tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda **105,3** foiz, yashash va ovqatlanishda **95,6** foiz, savdoda **94,7** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **93,7** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	3 725	Do'stlik t.	568
Sharof Rashidov t.	1 910	Arnasoy t.	465
Zomin t.	957	Paxtakor t.	456
Baxmal t.	944	Mizacho'l t.	447
Forish t.	875	Zafarobod t.	303
G'allaorol t.	821	Yangiobod t.	200
Zarbdor t.	668		

2023- yil aprel holatiga ko'ra, birlikda



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil mart oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan **21** taga, sanoat **15** taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

G'allaorol t.	83	Mirzacho'l t.	3
Jizzax sh.	17	Paxtakor t.	3
Yangiobod t.	7	Baxmal t.	2
Arnasoy t.	6	Sharof Rashidov t.	2
Zafarobod t.	6	Forish t.	1
Do'stlik t.	4		
Zomin t.	4		

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



604

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



1 150

Savdo



28

Axborot va aloqa



438

Sanoat



49

Tashish va saqlash



40

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

228

Qurilish



294

Yashash va ovqatlanish



269

Boshqa turlar


2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24,0** foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayishiga savdo (**82,1** foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (**80,4** foiz), sanoat (**65,1** foiz), tumanlar kesimida esa, G'allaorol (**92,0** foiz), Arnasoy (**91,8** foiz) va Yangiobod (**80,4** foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.


Hududlar kesimida

G'allaorol t.	584	Mirzacho'l t.	148
Jizzax sh.	482	Arnasoy t.	145
Forish t.	427	Zarbdor t.	141
Zomin t.	316	Baxmal t.	138
Paxtakor t.	190	Zafarobod t.	118
Sharof Rashidov t.	184	Do'stlik t.	75
Yangiobod t.	152		

2023- yil aprel holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxon – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	26	Zarbdor t.	4
Zomin t.	24	Arnasoy t.	2
Sharof Rashidov t.	18	Do'stlik t.	2
Paxtakor t.	16	Zafarobod t.	2
G'allaorol t.	13	Baxmal t.	1

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 2021- yilning mos davriga nisbatan **263** taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda **275** tadan **455** taga (o'sish **180** taga), sanoatda **624** tadan **668** taga (o'sish **44** taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **4** tadan **14** taga (o'sish **10** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida



Jizzax sh.	461	Zafarobod t.	67
Sharof Rashidov t.	239	Baxmal t.	56
G'allaorol t.	211	Mirzacho'l t.	37
Paxtakor t.	192	Forish t.	37
Zomin t.	186	Arnasoy t.	26
Zarbdor t.	122	Yangiobod t.	15
Do'stlik t.	84		

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




1

5,9 %

Savdo



Axborot va aloqa



6

6,0 %

Sanoat



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	2	Zomin t.	1
Baxmal t.	1	Mirzacho‘l t.	1
G‘allaorol t.	1	Yangiobod t.	1

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni **71** ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **39,7** foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi **21,2** foiz), Xitoy (ulushi **21,2** foiz) va Angliya (ulushi **14,0** foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	54	Baxmal t.	7
Forish t.	27	Do'stlik t.	7
Sharof Rashidov t.	19	Yangiobod t.	7
Zomin t.	14	Zafarobod t.	6
G'allaorol t.	12	Mirzacho'l t.	5
Arnasoy t.	9	Zarbdor t.	4
Paxtakor t.	8		

*2023- yil aprel holatiga ko'ra, birlikda***JIZZAX VILOYATI**

7

**BOSHQALAR**

7

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan **114** tasi qo'shma korxonalar, **65** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

65	Jizzax viloyati	114
19	Jizzax shahri	35
8	Sh.Rashidov tumani	11
8	Forish tumani	19
6	Zomin tumani	8
5	G'allaorol tumani	7
5	Zafarobod tumani	1
4	Do'stlik tumani	3
3	Arnasoy tumani	6
3	Mirzacho'l tumani	2
2	Yangiobod tumani	5
1	Zarbdor tumani	3
1	Paxtakor tumani	7
	Baxmal tumani	7

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
boʻlimi
Tel.: (72) 221-51-24